

**DANTE ALIGYERIYNING IOHIY KOMEDIYA ASARINI TAHLILY
O'RGANIB****Toshkent kimyo xalqaro universiteti****(Samarqand filiali)****Ergasheva Dilshoda Baxtiyor qizi****Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar**

Annotatsiya. Ushbu maqola jahon adabiyotining yorqin adibi Dante Alighieri hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lib, uning jahon adabiyoti va madaniyatiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Dante o'rta asr Yevropasining buyuk shoiri bo'lib, o'zining "Ilohiya komediya" asari orqali insoniyatning ma'naviy, falsafiy va diniy qiyofasini yuksak badiiy shaklda aks ettirgan. Maqolada Dantening hayotiy yo'li, surgundagi tajribalari va asarlaridagi asosiy mavzular — sevgi, adolat, ilohiylik va inson ruhining mukammallikka intilishi muhokama qilinadi. Shu bilan birga, uning ijodining italyan tilini rivojlantirishdagi roli va jahon adabiyotiga ta'siri ko'rsatilgan. Dante Alighieri nafaqat o'z davrining, balki insoniyat tarixining buyuk adiblaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Dante Alighieri, ilohiya komediya, o'rta asr adabiyoti, adabiy meros, ilohiy sevgi, falsafa va din.

Dante Alighieri Italian adabiyoti va Uygonish davrining asoschilaridan biri, jahon adabiyotida chuqur iz qoldirgan shoir, faylasuf va gumanist. U o'zining "Ilohiy komediya" asari bilan dunyo adabiyotining mumtoz durdonalaridan birini yaratdi. Dantening ijodi nafaqat o'rta asrlar balki zamonaviy adabiyot rivojida ham katta ahamiyatga ega.

Hayoti va ijodiy yo'li. Dante 1265-yilda Florensiyada dunyoga kelgan. Yoshligida u lotin tili, qadimgi yunon va rim adabiyoti, ilohiyat va falsafani o'rganadi. 9 yoshida Beatrice ismli ayolga bo'lgan muhabbati hamda uning go'zalligidan ilhomlanib, unga hayotidagi eng muhim she'rlarini bag'ishlagan. Beatrichning erta vafoti Dantening

ijodiga chuqur tasir kôrsatgan,bu esa uning asarlarida chuqur falsafiy va diniy mazmuni aks ettirgan.

Siyosiy qarashlari sababli Dante Florensiyadan badarğa qilingan va hayotining katta qismini surgunda ôtkazgan.Badarğa yillari uning ijodining eng sermahsul davri bôldi.Aynan shu davrda u ôzining eng uluğ asari"Ilohiy komediya "asarini yozishni boshlagan.

Ijod va asosiy asarlari :Dantening eng mashhur asari "Ilahiya komediya",uning dunyoqarashi va diniy falsafiy qarashlarining yakuniy ifodasi bôladi.Ushbu asar ôrta asr yevropasining dunyoqarashini jumladan,jannat,jahannam, va ôtov haqidagi tasavvurlarini yoritadi.Usbbu asar 3 qismdan iborat.

- 1.Dôzax-gunohkor insonlarning azoblanish joyi.
- 2.A'rof-poklanish va ruhiy takomillashtirish bosqichi.
- 3.Jannat-mukammallik va ilohiy huzur.

Dante ôz asarlarida Italian tilini keng ishlatgan.Bu vaqtgacha kôplab ilmiy va adabiy asarlar lotin tilida yozilgan bôlsa-da,Dante xalq tilida yozish orqali Italian adabiyotining asoschilaridan biroga aylangan.Uning boshqa muhim bir asari-"Yangi hayot"(LA Vita Nuova) unda Beatrichening vafoti va shoirning unga bôlgan sevgisi haqida sôz yuritiladi.Dante, shuningdek,siyosat va til haqidagi traktatlar ham yozgan.Masalan,"Xalq tili haqida"(De vulgari eloquentia)asarida xalq tiling madaniyat va adabiyot uchun ahamiyatini takidlaydi.

Dantening falsafasi va dunyoqarashi: Dante ijodi ôz davrining diniy va falsafiy tafakkurining mahsuli bôlsa-da,u ôsha davr chegaralaridan chiqib,insoniylikka oid universal mavzularni kôtaradi.Uning asarlarida ilohiy sevgi,ruhiy ozodlik,adolat va ma'naviy mukammallika intilish kabi mavzular yoritiladi.

Dante Aristotel,Romantic Akvinskiy va ôzdavrining boshqa buyuk faylasuflaridan ilhomlangan.Shu bilan birga u ôz asarlarida ôzining chuqur shaxsiy hissiyotlarini ham aks ettirgan.

Dantening ta'siri va xotirasi:Dantening ijodi nafaqat Italian adabiyotiga,balki dunyo adabiyotiga ham katta tasir kôrsatgan.Uning asarlari Renesasns davrida paydo

bôlgan insonparvarlik g'oyalari zamin yaratgan. Dantening falsafasi insonning ma'naviy va axloqiy mukammallikka intilishini targ'ib qiladi.

Bugungi kunda Dantening nomi Italiyda va jahon bôylab hurmat bilan tilga olinadi. Har yili uning jodi keng tadqiq qilinib, yangi ilmiy izlanishlar amalga oshiriladi.

Xulosa: Dante Alighieri ôzining ijodiy va falsafiy qarashlari bilan jahon madaniyati va adabiyotiga katta hissa qôshgan italyan adibidir.

Dante bizga nafaqat san'atni balki hayot ma'nosini ôrgatadi. Shu sababli uning merosi asrlar davomida unutilmas bôlib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alighieri, Dante. The Divine Comedy (Ilahiya komediya) "Dôzax", "A'rof", "Jannat".
2. La Vita Nuova (Yangi hayot). Beatricega bag'ishlangan poeziya va proza asarlari.
3. Baroline, Teodolinda. Dante's poet's: Textuality and Truth in the Comedy. Princeton University Press, 1984.
4. Kirkpatrick, Robin. Dante: the Divine Comedy. Cambridge University Press, 2004.
5. Hollander, Robert. Dante: A Life in Works. Oxford University Press, 2001.
6. Wikipedia: Dante Alighieri haqida umumiy ma'lumot va ijodining qisqacha tavsifi.